

DIPLOMATIK DISKURSDA KOMMUNIKATSIYA STRATEGIYASI

O‘zDJTU tarjimonlik fakulteti

f.f.f.d. (PhD) O.I.Bayjanova

Email: oqilabayjanova89@gmail.com

Annotatsiya. Diplomatik diskursda kommunikatsiya strategiyasi tomonlar o‘rtasida samarali va hurmatga asoslangan muloqotni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Diplomatik muzokalararning murakkab va nozik tabiatи hisobga olinib, tilning strategik qo‘llanilishi o‘zaro tushunishni rivojlantirish, ijtimoiy va siyosiy kontekstga moslashish hamda sezgir masalalarni boshqarishda zarurdir. Diplomatik muloqot ko‘pincha to‘g‘ri tonni tanlash, neytrallikni saqlash va kerakli maqsadga erishish uchun nozik lingvistik uslublardan foydalanishni talab etadi. Diplomatiyada samarali kommunikatsiya strategiyalari nizolarni hal qilish, muzokalarlarni olib borish va xalqaro munosabatlarni muvaffaqiyatli boshqarishni maqsad qilgan bo‘lib, bu jarayonda rasmiylik va noziklik darajasi muhim ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: Kommunikatsiya, strategiya, diplomatiya, diplomatik nutq, diskurs.

Аннотация. В дипломатическом дискурсе коммуникационная стратегия играет важную роль в обеспечении эффективного и уважительного общения между сторонами. Учитывая сложную и деликатную природу дипломатических переговоров, стратегическое использование языка необходимо для развития взаимопонимания, адаптации к социальным и политическим контекстам и управления чувствительными вопросами. Дипломатическое общение часто требует выбора правильного тона, сохранения нейтралитета и использования тонких лингвистических стилей для достижения поставленных целей. Эффективные коммуникационные стратегии в дипломатии направлены на разрешение конфликтов, ведение переговоров и успешное управление международными отношениями, при этом уровень формальности и нюансов играет важную роль в процессе.

Ключевые слова: Коммуникация, стратегия, дипломатия, дипломатическая речь, дискурс.

Annotation. In diplomatic discourse, communication strategy plays a crucial role in ensuring effective and respectful communication between parties. Given the complex and delicate nature of diplomatic negotiations, the strategic use of language is essential for developing mutual understanding, adapting to social and political contexts, and managing sensitive issues. Diplomatic communication often requires selecting the right tone, maintaining neutrality, and utilizing subtle linguistic styles to achieve desired objectives. Effective communication strategies in diplomacy aim at conflict resolution, conducting negotiations, and successfully managing international relations, with the level of formality and nuance being of significant importance in the process.

Keywords: Communication, strategy, diplomacy, diplomatic speech, discourse.

So‘ngi yillarda kommunikatsiya jarayonida yuzaga keladigan lisoniy birliklar bilan bir qatorda nolisoniy (pragmatik, ruhiy, ijtimoiy-madaniy) omillarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqish tilshunoslikda “diskurs” atamasining kengroq tatqiq etilishiga olib kelmoqda. Zamonaviy tilshunoslikda diskurs tushunchasi lingvistik termin sifatida XX asrning o‘rtalarida keng yoyilishni boshladi. Ushbu tushuncha hozirgi kunda fanlararo tadqiqotlar mavzusi hisoblanmoqda. Diskurs leksemasi dastlab lotin tilida “*discursus*” (“*harakat*”, “*oldinga va orqaga yugurmoq*”) tarzida qo‘llanilgan bo‘lib, keyinchalik fransuz tilida “*suhbat*”, “*muloqot*”, “*nutq*” ma’nolarida qo‘llanila boshlangan²⁶. F. de Sossyur tomonidan kiritilgan til sistema (langue) sifatida va til nutq sifatida (parole) oppozitsiyalarini ma’qullamaydi va nutq (parole) so‘zining o‘rniga diskurs atamasini kiritib, til va diskurs oppozitsiyalarini qo‘llashni taklif etadi. Uning fikricha: “Diskurs gapning yuqori turadigan sathi bo‘lib, har doim voqeа-hodisa sifatida namoyon bo‘ladigan va so‘zlovchi nutqi orqali faollashadigan diskret (alohida) harakatdir”²⁷, Diskurs lingvistik termin sifatida fanga ilk marotaba 1952-yilda Amerikalik olim Z.Harrisning “Discourse Analysis” maqolasida keltirilgan bo‘lib, tilshunos diskursni “Bir vaziyatda bir yoki bir nechta shaxslar tomonidan vujudga keltiriladigan og‘zaki yoki yozma gaplar yig‘indisi”, – deya tarif bergen²⁸.

Yu.S. Stepanov diskursga V.Z. Demyankov bergen ta’rifni eng yaxshi ta’rif deya hisoblaydi. “Diskurs – bitta gapdan yoki mustaqil gap qismidan ko‘proq matnning ixtiyoriy fragmenti. Ko‘pincha, (lekin doimiy emas) qandaydir tayanch konsept atrofida jamlanadi. Harakatlanadigan shaxslar, obyektlar, holatlar, zamonlar, harakatlarni tasvirlaydigan umumiy kontekstni hosil qiladi. Diskurs gaplarning ketma-ketligidan emas, uni hosil qiladigan, talqin etadigan, diskurs bilan “yaratiladigan” olam tomonidan aniqlanadi”. Diskurs uchun boshlang‘ich tuzilish kon'yunksiya, diz'yunksiya va boshqa mantiqiy munosabatlar bilan o‘zaro bog‘langan elementar propozitsiyalar ketma-ketligi ko‘rinishiga ega. Diskurs elementlari: bayon etilgan voqeа-hodisalar, ularning qatnashchilari, performativ axborotlar va hodisalar emas, ya’ni, a) hodisalardan keyingi holatlar; b) hodisalarni aniqlashtiradigan fon; v) voqeа-hodisa qatnashchilari bahosi; g) diskursni voqealar bilan solishtiridigan axborot²⁹.

Yuqoridagi olimlarning qarashlaridan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, diskurs barcha lingvistik va ekstralinguistik faktorlar bilan birgalikda adresantning maqsadlarini o‘z ichiga olgan matn yoki jonli nutq jarayonini tashlik etishini tushinish mumkin.

²⁶Инжечик А. К истории развития понятия «дискурс» в современной лингвистике // Доклады Башкирского университета. – 2019. – №6. – С. 642.

²⁷Goodrich P. Legal Discourse: Studies in Linguistics, Rhetoric and Legal analysis. – London: The Macmillan Press LTD, 1987. – P. 135

²⁸Harris Z. Discourse analysis // Language. Robins R. H. General Linguistics. An Introductory Survey. – London, 1971. – P. 27; 1952. – №1. – P.3.

²⁹Степанов Ю.С. Альтернативный мир, Дискурс, Факт и принцип Причинности // Ю.С.Степанов // Язык и наука конца XX века. – М.: Российский Государственный гуманитарный институт, 1995. – С. 35-73.

Xorijlik tilshunos olimlarning diskurs tushunchasini qay tarzda aniqlashganliklarini ham ko'rib chiqishimiz mumkin. Debori Shifrin bu tushunchaga uch taraflama yondoshadi. 1) yondashuv tilshunoslikning formal yo'naltirilgan pozitsiyasidan diskursni shunchaki gap yoki so'z birikmasi darajasidan yuqorida

turadi deb hisoblaydi - "language above the sentences or above the clause"³⁰ 2) yondashuv diskursga "the study of discourse is the study of any aspect of language use" hamda "tilning turlituman ishlatilishi" sifatida funksional ta'rif beradi. Bu yondashuv tilning keng ijtimoiy-madaniy kontekstdagi vazifasini o'rganishni nazarda tutadi. 3) yondashuv shakl va funksiyaning o'zaro harakatini ta'kidlaydi: diskurs-fikr - "discourse as utterances". Bu ta'rifga ko'ra diskurs "gapdan kattaroq" bo'lgan lisoniy tuzilmalarning ajratib olingan primitiv yig'indisi emas, balki til ishlatilishining funksional tashkil qilingan, kontekstuallashgan birliklarining majmuidir.

Ba'zi tilshunoslar "diskurs" va "matn" kategoriyasini farqlashga harakat qilib, bu tushunchalar o'rtasidagi o'zaro bog'lanishni aniqlamoqchi bo'ladilar. Diskursni "matn plus situatsiya", matnni esa "diskurs minus situatsiya" qabilida tasniflashni taklif qiladilar.

Ba'zan bu kategoriyalarni farqlashda yozma matn og'zaki matnga qaramaqarshi qo'yiladi. I.R. Galperinda matnning quyidagicha izohini uchratishimiz mumkin. "Matn – nutqiy ijodning yozma shaklda ko'rinishi"³¹. Z.Ya. Turaeva og'zaki nutqni e'tibordan chetda qoldirib, matnning juda tor ta'rifini beradi. Uning ta'kidlashicha, "matn – yozma hujjat shaklida obyektlangan tugallanganlikka ega nutqiy ijodiy jarayonning mahsuli".

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy tilshunoslikda "diskurs" tushunchasi har-hil yondoshuvlarga boydir. Masalan: A.M. Kaplunenko "diskurs" va "matn" tushunchasi munosabatini aniq ifodalaydi. Olimning fikriga ko'ra "diskurs ancha keng universal tilshunoslik obyekti bo'lib, u nafaqat nutqning til strukturasini

o'z ichiga oladi, balki kommunikativ vaziyatlarning bir tipdagi parametrlarini, kommunikantlarning o'ziga xosliklarini, muloqot qurilishi strategiyasini o'z ichiga oladi. Diskursdan farqli ravishda matn nutqning struktur-ma'noviy parametrlari doirasidan tashqari chiqmaydigan ancha o'ziga xos va tor ko'rinishni namoyon qiladi. Diskursni bunday keng tushunish, bugungi kunda barcha lingvistik adabiyotlarda uchraydi. Albatta, bularning hammasini asos sifatida qamrab olish qiyin. Biroq, olim T. Van Deykning qarashilarini qabul qilsak maqsadga muvofiq bo'lar edi. Unga ko'ra diskurs bu murakkab kommunikativ hodisa, u matndan tashqari ekstralolingvistik faktorlarni (matnni tushunish uchun zarur bo'lgan dunyo haqidagi bilim, fikr, qarashlar, adresatning maqsadini) ham o'z ichiga qamrab oladi.

³⁰Макаров М.Л. Интерпретативный анализ дискурса в малой группе / М.Л. Макаров. – Тверь: Изд-во Тверского госуд. университета, 1998. – С. 199.

³¹Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования / И.Р. Гальперин. – М.: Наука, 1981. – С. 18. (140).

Xulosa. Diplomatik diskursda kommunikatsiya strategiyasi tomonlar o‘rtasida samarali, hurmatga asoslangan va konstruktiv muloqotni ta’minlash uchun juda muhimdir. Diplomatik munosabatlarning nozik tabiatи hisobga olinib, tilning strategik qo‘llanilishi o‘zaro tushunishni rivojlantirish, siyosiy va ijtimoiy kontekstga moslashish hamda sezgir masalalarni hal qilishda zarurdir. Samarali diplomatik kommunikatsiya to‘g‘ri tonni tanlash, neytrallikni saqlash va nozik lingvistik uslublardan foydalanishni talab qiladi. Diplomatiya sohasida muvaffaqiyatli muzokaralar olib borish, nizolarni hal qilish va xalqaro munosabatlarni boshqarish uchun kommunikatsiya strategiyalari katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Инжечик А. К истории развития понятия «дискурс» в современной лингвистике // Доклады Башкирского университета. – 2019. – №6. – С. 642.
2. Goodrich P. Legal Discourse: Studies in Linguistics, Rhetoric and Legal analysis. – London: The Macmillan Press LTD, 1987. – P. 135
3. Harris Z. Discourse analysis // Language. Robins R. H. General Linguistics. An Introductory Survey. – London, 1971. – P. 27; 1952. – №1. – P.3.
4. Степанов Ю.С. Альтернативный мир, Дискурс, Факт и принцип Причинности // Ю.С.Степанов // Язык и наука конца XX века. – М.: Российский Государственный гуманитарный институт, 1995. – С. 35-73.
5. Макаров М.Л. Интерпретативный анализ дискурса в малой группе / М.Л. Макаров. – Тверь: Изд-во Тверского госуд. университета, 1998. – С. 199.
6. Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования / И.Р.Гальперин. – М.: Наука, 1981. – С. 18. (140).